TOSHKENT SHAHRI SIRG‘ALI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 1-noyabr | 289-14-201-Q/24 | Sergeli tuman hokimligi

Sergeli tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining 2025-yil uchun eng kam sonini belgilash, zaxiraga olish va band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida” Qonunining 12, 38, 39-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunining 14 va 43-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining hojatmand qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016-yil 22-fevraldagi PF-4782-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yilga mo‘ljallangan band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash bo‘yicha tuman maxsus komissiyasining 2024-yil 12-sentabrdagi bayonini inobatga olib

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, Sergeli tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining 2025-yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalarning ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Sergeli tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi 40 ta korxona, tashkilot va

muassasalarda aholining quyidagi toifalari uchun xodimlarning o‘rtacha sonining 10 foizigacha miqdorida, ya′ni 396 ta ish o‘rinlari zaxiraga olinib, band qilib qo‘yilsin.

Shu jumladan:

14 yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 37 foiz (147 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta′limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta′lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta′lim olgan bitiruvchilari uchun 40 foiz (162 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 3 foiz (13 kishi);

nogironlar uchun 3 foiz (12 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 9 foiz (36 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 7 foiz (26 kishi).

3. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me′yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta′minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va mehnat to‘g‘risidagi boshqa qonun va qonunosti hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

4. Zaxiraga qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar ro‘yxati:

muhandislar, iqtisodchilar, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, haydovchi, tashuvchi, farrosh, qozonxona o‘t yoquvchisi, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, operator, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul.

5. Ish o‘rinlarini zaxiraga olib, band qiluvchi korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta′minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish joylari umumiy miqdori kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan 75 foizlik qismini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya′ni har bir toifa bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasb va lavozimlar, mutaxassisliklar ro‘yxati Toshkent shahar Sergeli tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etilsin.

Ilovadagi shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiqlashtirilishi ta′minlansin.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Sergeli tuman hokimining qarorini bajarmagan tashkilotning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma′muriy javobgarlik belgilanganligi inobatga olinsin.

Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining ushbu qarorini bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

7. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari 2-ilovada belgilangan miqdoridan ortiqchasini tashkil etgan korxona, tashkilot va muassasalar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larning bir qismini Sergeli tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnomaga asosan Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2019-yil 31-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 3163-sonli buyrug‘iga asosan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan korxona, tashkilot va muassasalarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 (ikki) barobari miqdorida Sergeli tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan haq to‘lansin.

8. Sergeli tumani hokimligi Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘limi (S.Yunusov), tuman hokimligi Matbuot xizmati (Sh.Ibrohimova):

Sergeli tuman (www.sergeli.toshkent.uz) veb-saytiga joylashtirilishini ta′minlasin.

9. Qaror rasmiy e′lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosi Sergeli tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i R.Abdunabiyev, bajarilishini nazorat qilish Sergeli tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Jumaboyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **E.Shukurov**

Sergeli tuman hokimining
2024-yil 1-noyabrdagi
289-14-201-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Sergeli tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha maxsus komissiya

TARKIBI

Komissiya raisi-Sergeli tuman hokimining birinchi o‘rinbosari	A.Jumaboyev
Komissiya a’zolari:	
Sergeli tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy soha va ma‘naviyat-ma‘rifat ishlari bo‘yicha o‘rinbosari	O‘.Mahkamov
Sergeli tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i	R.Abdunabiyev
Sergeli tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i	N.Jo‘rayeva
Sergeli tuman hokimligining bosh yuriskonsulti	D.Xalilov

Sergeli tuman hokimining
2024-yil 1-noyabrdagi
289-14-201-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Sergeli tumanida 2025-yil uchun “KVOTA”, Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish, ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qoʻyish boʻyicha

MAʼLUMOT

№	Korxona nomi	Xodimlar soni	Hokimiyat tomonidan yaratilgan mahsus ish joylari	Korxonada haqiqatan yaratilgan maxsus ish oʻrinlari	oʻntoʼrt yoshgacha va nogironligi boʻlgan bolalari boʻlgan yolgʻiz ota, yolgʻiz onalar va koʻp bolali oilalar	Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy taʼlim muassasalarining davlat grantlari boʻyicha taʼlim olgan bitiruvchilari	Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni oʻtagan va Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar	Nogironligi boʻlgan	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilishidan ozod qilingan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanuvchiilari	oilaviy (maishiy) zoʻravonlik natijasida jabrlanganlar
1	"NIKA FARM SERVIS" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	632	41		19	20		2				
	"UZTEX											

2	TASHKENT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	581	38		13	13	2	2		8		
3	SERGELITUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI DAVLAT MUASSASASI	422	29		8	8		1	4	8		
4	"WINGS DISTRIBUTION COMPANY" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	378	24		10	11	2	1				
5	"300-SON DAVLAT IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	330	22		9	9		1	3			

6	SERGELI TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI-MARKAZIY KO'P TARMOQLI POLIKLINIKASI	307	21		8	7	2	1	3			
7	TOSHKENT SHAHAR KANALLARDAN FOYDALANISH VA ULARGA TUTASH HUDUDLARNI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	307	21		6	6	1		3	5		
8	"BTS EXPRESS CARGO SERVIS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	266	17		8	8	1					
	"AKADEMIK											

9	Y.X. TO‘RAQULOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ENDOKRINOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI TOSHKENT SHAHAR FILIALI" DAVLAT MUASSASASI	241	16		6	6	1	1	2			
10	"ROODELL" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	193	12		5	5	1	1				
11	"264-SON UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	60	3		1	2						
12	"AYSEL INSHAAT"	170	10		4	5	1					

	MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA											
13	11-SON OYLAVIY POLIKLINIKA	167	10		4	4			2			
14	"ISTE`MOLDA BO`LGAN TRANSPORT VOSITALARI VA EHTIYOT QISMLAR SERGELI BOZORI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	167	11		1	2	2	1	2	3		
15	"301-SON UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	169	10		2	6			2			
16	"MAKIZ BARAKA"	157	8		4	4						

	MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT											
17	"12-SONLI POLIKILINKA" DAVLAT MUASSASASI	168	9		3	4			2			
18	"284-SON UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	147	8		3	3			2			
19	"FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	139	8		4	4						
20	TOSHKENT SHAHAR SERGELI TUMANI 61-SON OILAVIY POLIKLINIKA	133	8		3	3			2			
	"277-SONLI											

21	DAVLAT IXTISOSLASHGAN UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	116	7		2	3			2			
22	"OSTEX COLOUR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	93	6		2	2		1		1		
23	"BARAKAT-ALFA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	104	7		3	3				1		
24	"7-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	90	6		2	3			1			
25	SERGELI TUMANI SANITARIYA	88	5		2	3						

	- EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK MARKAZI											
26	"351-SONLI UMUMIY O‘RTA TALIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	81	5		2	2			1			
27	"NONASH" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	67	4		1	2			1			
28	"269-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	70	4		1	2			1			
29	"TECHNO-SIRIUS" MAS'ULIYATI CHEKLANG	74	4		2	2						

	AN JAMIYAT											
30	TOSHKENT SHAHAR SERGELI TUMANI 552-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	59	2			1			1			
31	"352-SONLI UMUMIY O‘RTA TALIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	56	2			1			1			
32	TOSHKENT SHAHAR SERGELI TUMANI 562-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	57	2		1				1			

33	TOSHKENT SHAHAR SERGELI TUMANI 297-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	55	2		1	1						
34	"76-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	58	2		1	1						
35	"FAYZ-FOUNDATION" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	45	2		1	1						
36	"DONG SEUNG KOREA" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	42	2		1	1						

	QO`SHMA KORXONA											
37	"SUNJIN-DONG SEUNG" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	40	2		1	1						
38	"349-SONLI UMUMIY O‘RTA TALIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	37	2		1	1						
39	TOSHKENT SHAHAR SERGELI TUMANI 359-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	28	1			1						

40	TOSHKENT SHAHAR SERGELI TUMANI 539-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	64	3		**2**	**1**						
Jami:	**40**	**6458**	**396**		**147**	**162**	**13**	**12**	**36**	**26**	**0**	**0**